



## SHE'RIY MATNDA EMOTIV FUNKSIYANING IFODALANISHI

Eshonqulova Nigoraxon Farhodjon qizi

Farg'ona davlat universiteti

Lingvistika: o'zbek tili yo'nalishi magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12179048>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-June 2024 yil

Ma'qullandi: 15- June 2024 yil

Nashr qilindi: 20- June 2024 yil

### KEYWORDS

:til, she'riy matn,  
pragmalingvistika,  
antroposetrik tamoyil, poetik  
ifoda, emotiv funksiya, she'riy  
matn, pragmatika,  
kommunikatsiya

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada she'riy matn, undagi mazmun va ko'lam, tilshunoslikda she'riy matnning emotsional tomonini o'rganilish ahamiyati, uning har bir turning aloxida o'rni haqida atroflicha fikrlar keltirilgan. Shuningdek, poetik matnning emotiv tomoni orqali yozuvchi kitobxonga nima demoqchi, ular o'rtasidagi pragmatik ma'no qanday vositalar orqali yuzaga chiqayotgani yoritib berilgan. Maqolada she'riy matnning emotiv tomoni, emotiv xususiyatidagi tagma'no Muhammad Yusufning ijodidagi misralar orqali ochib berilgan.*

She'riy matn ko'p qirrali hodisa bo'lib, ifoda imkoniyatiga ko'ra, o'zining bir qator kategoriyalariga ega: "o'ziga xos ifoda rejasi va mazmuniga egaligiga ko'ra lingvistik kategoriya; muallif dunyoning badiiy tasvirini ifodalashdagi individual xususiyatlarini umumlashtirishiga ko'ra antroposentrik kategoriya; madaniyat belgilari bilan bog'liqligiga ko'ra lingvomadaniy kategoriya; estetik obyektiv qismi ekanligiga ko'ra estetik kategoriya; san'atning turlari, fan, texnika va falsafa bilan bir qatorda inson faoliyatining intellektual, xususiy, psixologik, gumanitar va boshqa tomonlari bilan bog'liqligiga ko'ra ma'naviy kategoriya" dir. She'riy matnlarda mazmunga taalluqli voqealar va estetik axborotlar majmuasi muallifning maqsadiga ko'ra namoyon bo'ladi. A.A.Fetning fikricha: "She'riyat, albatta, yangilikni talab qiladi. Shoirning kuchi u tekkan hamma narsaning hammasini oltinga aylantirishdir" [1, 309]. She'riy matnda shoir tomonidan so'z orqali hayot mohiyati jonli, mushohadali, bizga noma'lum ko'rinishda gavdalanadi, unda turfa ma'nolar esa kitobxonga turli yo'sinda ta'sir qiladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Lisoniy sistema funksiyalari haqidagi tadqiqotlar, dastlab, psixologik va lingvistik tamoyillar asosida amalga oshirilgan. Psixolog va tilshunos olim K.L.Byuler(7/501) borliq va uning elementlarini, anglash idrok qilish, borliqda sodir bo'layotgan voqealarning muloqot ishtirokchilariga ta'siri, hamda uning nutqdagi ifodasi, nutq ishtirokchilarining o'zaro psixologik munosabatlari asosida tilning reprezentativ, ekspressiv va appelyativ funksiyalarini psixologik tamoyillar negizida asoslagan. Matnni til satxlari bo'yicha funksional semantik aspektda G'arb tilshunosligining Praga lingvistik maktabi vakillari o'rgandilar. Ushbu maktab vakillari R.O.Yakobson, B.Trinka, I.Baxek, B.Gavranek, N.S.Trubetskoy, S.I.Karsevskiy va

boshqalar tomonidan til birliklarining har biri muayyan funksiyaga ega ekanligi hamda ular nutqda muayyan vazifa bajarishini asoslab berishga harakat qildilar. Mazkur olimlar tilni –til xodisalarini, til birligi xisoblangan matnni tahlili qilishda sinxron va diaxron nuqtai nazardan yondashish kerakligi, shu asosda til va nutq hodisalarini farqlash kerakligiga alohida urg'u beradilar. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Mamajonov, D.Lutfullayeva, Sh.Iskandarova, S.Mo'minov, SH.Safarov, M.Hakimov, M.Saidxonov, S.Boymirzayeva, A.Ko'chiboyev, M.Qurbonova, A.Pardayev, M.Abdupattoyev, E.Ibragimova, S.Qurbonova, M.Gaziyeva, U.Nosirova, N.Qazaqovalar ham matn va unda ifodalangan til birliklarini turli aspektda tahlilga tortdilar. Bugungi kun tilshunosligida poetik matnlar va ularda ifodalangan leksik birliklarning pragmatik xususiyatlari keng o'rganilgan bo'lsa-da, she'riy matn va unda ifodalangan tilning funksional xususiyatlari va ularning pragmatik mohiyatini tadqiq etish muhim masala hisoblanadi. Tilning funksional xususiyatlarini yoritishda esa poetik matnlarning ahamiyati misollar orqali izohlanadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Bugungi kunda tilshunoslikda yaratilayotgan shart-sharoitlar orqali matnni o'rganishning eng samarali usullarini, shu bilan birgalikda konkret turdagi nutqiy asarlarni ularni taksonomik tegishligiga ko'ra tadqiq qilishning imkoniyatlarini ochib bermoqda. Matnning emotivli aspekti shu kabi tadqiqotlarda eng murakkabi va muhimi bo'lib kelmoqda. So'ngi yillarda lisonning emotiv (ematsional) tomoniga katta e'tibor qaratilmoqda, xususan, tilshunos olimlar tomonidan emotivlik muammosini lingvistikaning antroposentrik yo'nalishida asosiy o'rinni egallovchi masalalar qatoriga qo'yishmoqda.

Emotsiyalar – obyektiv borliqni baholash, anglash, aks ettirish shakllaridan biri ekanligi haqidagi qarashlar turli fan vakillari, avvalo, psixologlar va faylasuflar tomonidan e'tirof etilmoqda. Emotsiyalar voqelikni anglash va aks ettirishning o'ziga xos alohida shakli bo'lib, ularda inson bir vaqtning o'zida ham obyekt, ham subyekt bo'lib keladi. Umuman olganda, emotsiyalar inson faoliyati asosida yuzaga keladigan ehtiyojlar bilan bog'liq hisoblanib, bu esa turli fan sohalarini uchun yangi qirralarni ochib berishga imkon yaratadi.

Inson ruhiyatining ematsional sohasi matn doirasidagi lingvistik xususiyatlari bugungi kundagi dolzarb mavzular qatorida o'rganilib kelinmoqda. Matnda ushbu obyektiv hodisa semantik ma'no, stilistik bo'yoqdorlik bilan birlashib, u muallifning qarashlari, kitobxonning vaziyatni anglashiga bog'liq. Bu esa poetik matnlarda ham alohida ko'zga tashlanadi. She'riy matnda subyekt uchun yuz berayotgan voqea-hodisalar ahamiyati ijobiy yoki salbiy sifatida baholanib, ushbu jarayon natijasida emotsiyalar subyektning ichki hissiyotlarini ochib berishga xizmat qiladi.

She'riy matnda xabarni adresatga yetkazish uchun, birinchi o'rinda, muallifning o'ziga xos induvudalligi, poetik maqsadi hamda leksik birliklari o'z o'rnida qo'llay olish mahorati turadi. She'riy matnda muallif o'z ichki maqsadini nutqda bayon qilish uchun uslubiy bo'yoqdorlikka ega bo'lgan leksemalardan foydalanadi. She'riy matnlarda olamning lisoniy manzarasi muallifning konseptual asosiga ko'ra, turli xil ko'rinishda namoyon bo'ladi. Bu jarayon kontekstda yuzaga chiqadi.

Nutqiy muloqot komponentlarining har biri lisoniy sistema va unga yondosh, turdosh yo'nalishlar mazmunini belgilash uchun xizmat qiladi. Jumladan, adresat va adresant o'zaro kommunikativ munosabatning asosiy komponenti sifatida emotiv va konativ funktsiya bajaradi. Tilning **emotiv funksiyasida** adresant to'g'ridan-to'g'ri voqelik va vaziyatga o'z

munosabatini bildiradi. Unda muallif borliqni anglash, uni nutqda aks ettirish orqali kitobxonning psixologik nuqtayi nazardan tahlil qilishga undaydi.

Masalan:

*Kim-kimga sohibi sanjarman deydi,  
Sim-simga maqtanib –xanjarman deydi,  
Qumursqa ham o'zin ajdarman deydi,  
Men nima ham derdim.*

*Bol bergan qo'lingga nayzasin sanchsa,  
Qilgan yaxshiliging bilmagan qancha,  
Oqillarin talar qancha tirrancha,  
Men nima derdim.*

*Iymon yo'q go'shada ehrom qaydadir,  
Qalbgaga taskin qayda, orom qaydadir,  
Magar jondan kechg'in, nima foydadir?..  
Men nima ham derdim.*

*Mening yozganlarim shunchaki havas,  
Menga dilim poshsho-she'rlarim emas,  
Shoir-sen, desam ham, qo'ymagay, nokas,  
Men nima derdim.*

*Otamdan qolmagan bu nazmu so'lg'in,  
Men bog'da gul emas – tog'dagi yulqun!  
Qo'lingdan kelsa bor, Navoiy bo'lg'in!..  
Men nima derdim. (“Xudbinga”) [9, 226]*

Muhammad Yusuf ijodidan keltirilgan ushbu misralarda dunyoda, jamiyatda yuz berayorgan xudbinliklarga munosabatini ifodalaydi. So'z orqali insoniyatga ta'siri, shoirning o'zininggina qo'lidan hech nima kela olmasligi tasvirlangan.

So'z-tilning narsa-hodisalar, jarayon va xususiyatlarni nomlash uchun xizmat qiladigan eng muhim struktur ma'noviy birligi bo'lib, o'z tovush qobig'iga ega bo'lgan, borliqdagi narsa haqidagi tushunchani, ular o'rtasidagi aloqani yoki ularga munosabatini ifodalay oladigan, turli grammatik ma'no va vazifalarda qo'llanadigan eng kichik nutq birligi, leksemaning nutqda muayyan shakl va vazifa bilan voqelangan ko'rinishi. So'z gap uchun qurulish materiali bo'lib bo'lib xizmat qiladi, lekin, undan farqli ravishda, xabar yoki tugal fikr bildirmaydi. O'zida leksik va grammatik ma'noni birlashtirgan holda so'z muayyan o'z turkumiga mansub bo'ladi, o'z tarkibida muayyan til tizimida oldindan tayin bo'lgan barcha ma'nolarni ifodalaydi. Lekin ana o'sha bir so'z orqali butun bir matnning mazmuni o'zgarib, yangi ma'nolar hosil qilishi mumkin. Deyarli har bir so'z o'z ma'nosidan tashqari boshqa bir ma'noni ifodalab, kitobxon uchun yangi tasavvur dunyosini yarata oladi.

Yuqoridagi she'riy matnda yozuvchi tomonidan insonlardagi turli illatlar, ikkiyuzlamachiliklar, yolg'onchilik va ayyorliklar qoralanadi. Shu bilan birga butun bir dunyodagi noinsofliklar shoir tilidan iztirob bilan tasvirlangan. Muallifning bunday ruhiy

tug'oni, ichki kechinmalari kitobxonga tilning emotiv funksiyasi orqali yetkazdirib berilmoqda.

Emotiv funksiyaning ikki ifoda turini ajratish mumkin: ulardan biri, verbal ifoda qiymatiga ega bo'lgan emotiv funksiya va ikkinchisi jestikulyativ ifoda shaklidagi emotiv funksiyadir. Bunday ifoda turlarining nasriy matnlardagi ko'rinishlari M.Hakimov tadqiqotlarida ham ilmiy asoslab berilgan [7]. Bunday vaqtda emotiv vazifa paralingvistik va boshqa vositalar orqali namoyon bo'ladi. Yuqoridagi she'rda esa yozuvchi verbal vositalardan foydalangan holda emotiv funksiyaning bizga noma'lum tomonlarini ochib bera olgan. Muallif tomonidan insondagi turli illatlar iztirobi emotiv-ekspressiv holatini ifodalagan. Bu orqali ijodkor psixologik jarayonni tasvirlashda insonning turli salbiy xislatlaridan foydalangan holda kitobxonning ruhiy dunyosiga ta'sir qiladi va ichki xis-tuyg'ularining uyg'onishiga sabab bo'ladi.

Poetik matnlarda olamning lisoniy manzarasi ijodkorning konseptual asosiga ko'ra, turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu jarayon natijasida kontekstda emotivlik xususiyati namoyon bo'ladi. Belgiyalik tilshunos Jan Nyuts aytganidek, "nutqiy tuzilmalarning strukturasi va ma'nosining aniq tavsifini matn (konteks)ga xos faktorlarga yoki aniqroq aytganda, ushbu tuzilmalarning qo'llanilishiga oid faktorlarga tayanmasdan turib bilishning iloji yo'q" [2, 78]. Shuning uchun har bir sintaktik birlikning ma'no va mazmun mohiyatini aniqlashda konteksga tayaniladi.

#### **XULOSA**

She'rni o'qigan kitobxon qalbida yaqinlariga bo'lgan mehri, oradagi uzib bo'lmas bir rishtaning borligi yuzaga chiqadi. Chunki she'riy matnda xabarni adresatga yetkazish uchun, birinchi o'rinda, muallifning o'ziga xos individalligi, poetic maqsadi hamda leksik birliklarni o'z o'rnida qo'llay olish mahorati turadi. Muallif ushbu she'ri orqali kitobxonning ruhiyatiga ta'sir etib, yuqoridagi o'xshatishlar orqali tasavvurda turli obrazlarni gavdalandirgan holda xulosa chiqarishga undaydi. Poetik matnlarda olamning lisoniy manzarasi ijodkorning konseptual asosiga ko'ra, turli shakl va ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bu jarayon natijasida kontekstda emotivlik xususiyati namoyon bo'ladi. Xulosa qilib aytganda, poetik emotsiyada ijtimoiy borliqdagi ma'lumotlarning kontseptual asoslari, xarakter, ong, tafakkur bilan bog'liq tushunchalar o'z ifodasini topadi. Ijodkorning til birlilari orqali insonning his-tuyg'ulari, fikrlash uslubi, dunyoqarashi va tafakkuriga ta'siri tilshunoslikning kognitiv-pragmatika doirasida o'rganiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.Фет А.А. Стихотворения. Проза. Письма.-М., 1988.-С.309.
2. Nuyts J. Aspects of a Cognitive-Pragmatic Theory of Language. On cognition, functionalism, and grammar.- Amsterdam / Philadelphia: J.Benjamins Publishing comp, 1992. –Б. 68.
- 3.Safarov Sh. Pragmalingvistika. Monografiya. –Toshkent,2008.-B.33
- 4.Ko'chiboyev A. Matn pragmatikasi. O'quv-uslubiy qo'llanma. –Samarqand, 2015.-B.20.
5. Hakimov M. O'zbek pragmalingvistikasi asoslari. –Toshkent, 2013.-B.99
6. Hakimov M. Gaziyeva M. Pragmalingvistika asoslari. –Toshkent, 2020.-B.105.
7. Ҳақимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талқини. Филол. фан. д-ри. дисс... автореф. – Тошкент, 2001.
- 8.Nosirova U. Poetik matnning pragmatik xususiyatlari. Monografiya. –Farg'ona, 2020. –B. 50.
9. Muhammad Yusuf. Saylanma. –Toshkent, 2019.

10. Byuler K. Teoreya Yazika. Rezentativnaya funktsiya yazika.—Moskva, 1993-501 s
11. Muhammad Yusuf, Saylanma. –Toshkent: Sharq, 2019. B-226
- 12.<http://www.philology.ru/linguistics1/jakobson-75.htm>.R.O.Yakobson. Bibliograficheskaya informatsiya://Strukturalizm “za” i “Protiv”. -M.,1975.



INNOVATIVE  
ACADEMY